

DALILLARNI TAQDIM ETISH BILAN NARSALARNI, HUJJATLARNI VA ELEKTRON MA'LUMOTLARNI TAQDIM ETISH TUSHUNCHALARINING O'ZARO BIR BIRIDAN FARQLI JIHATLARI

Sayfullayev O'lmasjon Shavkat o'g'li

**O'zbekiston Respublikasi IIV akademiyasi
mustaqil izlanuvchisi, kapitan**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21838972>

Annotatsiya. Maqolada jinoyat protsessual huquqidagi “dalillarni taqdim etish” va “narsa, hujjat hamda elektron ma'lumotlarni taqdim etish” tushunchalarining o'zaro nisbati tadqiq etilgan. Ushbu tushunchalar umumiylik va xususiylik nuqtayi nazardan kelib chiqib, ularni farqlashning to'rt mezonni asoslangan hamda narsalarni, hujjatlarni va elektron ma'lumotlarni taqdim etishning protsessual tartibini bosqichlarga ajratgan holda amalga oshirish mexanizmi yoritilgan.

Kalit so'zlar: dalillarni taqdim etish, narsa, hujjat, elektron ma'lumot, isbot qilish, ixtiyoriylik, protsessual maqom, dalillarni to'plash usullari.

Kirish. Jinoyat protsessida isbot qilish faoliyatining samaradorligi ko'p jihatdan dalillarni to'plash usullarining qonunda qanchalik aniq va izchil tartibga solinganligiga bog'liq. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 87-moddasida dalillarni to'plash usullari qatorida taqdim etilgan ashyolarni, hujjatlarni va elektron ma'lumotlarni qabul qilishni alohida ko'rsatilgan¹. Mazkur usulning o'ziga xosligi shundaki, unda dalil manbai vakolatli organning bevosita dalillarni qidirib topish faoliyati natijasida emas, balki tashqaridan – protsess ishtirokchisi yoki boshqa shaxsning tashabbusi bilan protsessual munosabatlarga kiritiladi.

Shu bilan birga, ilmiy adabiyotda va amaliyotda “dalillarni taqdim etish” hamda “narsa, hujjat va elektron ma'lumotlarni taqdim etish” tushunchalari ko'pincha aynanlashtiriladi. Bunday yondashuv, fikrimizcha, nazariy jihatdan asosli emas va amaliyotda protsessual chalkashliklarga olib kelishi mumkin. Mazkur maqolada ushbu tushunchalarning o'zaro nisbatini aniqlash, ularni farqlash mezonlarini ishlab chiqish hamda taqdim etish institutining protsessual tuzilishini ochib berish maqsad qilib olingan.

Masalaning ilmiy adabiyotda o'rganilganlik darajasi. Dalillarni taqdim etish muammosi jinoyat protsessual fanida uzoq yillardan buyon tadqiq etib kelinmoqda. Rus protsessualisti S.A. Sheyfer dalillarni to'plash usullari tizimini tahlil qilar ekan, taqdim etishni vakolatli organning bevosita dalillarni qidirmasdan amalga oshadigan o'ziga xos usul sifatida ajratib ko'rsatadi va uni isbotlash subyektining bilish faoliyatining yakuniy bosqichi deb ta'riflaydi². Muallifning fikricha, axborot manbai protsessual shaklga solinmaguncha dalil sifatida e'tirof etilmaydi³.

A.R. Belkin taqdim etish harakatini dalillarni to'plashning tarkibiy usuli sifatida talqin qilib, uni dalilning protsessual “tug'ilishi” jarayoni bilan bog'laydi hamda taqdim etish huquqi real kafolatlangan bo'lishi uchun unga vakolatli organning obyektini qabul qilish va asoslangan

¹ O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi. Amaldagi tahrir. – lex.uz. <https://lex.uz/docs/-111460#-253798>

² Шейфер С.А. Собрание доказательств в советском уголовном процессе. – М.: Наука, 1981. – С. 96.

³ Шейфер С.А. Доказательства и доказывание в уголовном судопроизводстве. – М.: Норма, 2009. – С. 124.

qaror chiqarish majburiyati mos kelishi lozimligini ta’kidlaydi⁴. V.A. Ponomarenkov esa narsa va hujjatlarni ixtiyoriy berishni taqdim etishning eng muhim belgisi sifatida baholab, ixtiyoriylik unsuriga alohida urg’u beradi⁵. V.M. Bikov protsess ishtirokchilari tashabbusi bilan amalga oshiriladigan harakatlarni isbotlash jarayonining “ikkinchi qatlami” sifatida baholab, ular orqali dalil manbaining tashqaridan kirib kelishi isbotlash imkoniyatlarini kengaytirishini qayd etadi⁶.

F.M. Muxitdinov dalillarni taqdim etishni isbotlash subyektlarining protsessual faolligini ta’minlovchi va dalillar bazasini boyituvchi muhim vosita sifatida tavsiflaydi⁷. Sh.X. Inomjonov esa protsess ishtirokchilarining dalil taqdim etish huquqi ularning isbotlash faoliyatidagi manfaatlarini ro’yobga chiqarishning asosiy vositalaridan biri ekanligini ta’kidlab, bunday huquqning samarali bo’lishi uchun uni amalga oshirish mexanizmi aniq bo’lishi zarurligini asoslaydi⁸.

Yuqoridagi qarashlarni umumlashtirib shuni aytish mumkinki, olimlar taqdim etishning mustaqil protsessual ahamiyatini e’tirof etadilar, biroq uning “dalillarni taqdim etish” umumiy tushunchasi bilan nisbati masalasi doktrinada yetarlicha aniq hal etilmagan.

Amaldagi qonunchilikdagi tartibga solinishi. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksida taqdim etish instituti 24-bobda, xususan 198–202-moddalarda mujassamlashgan. Qonun chiqaruvchi ushbu institutni qurishda muayyan ichki mantiqqa amal qilgan: dastlab narsalarni taqdim etish (198–199-moddalar), so’ngra hujjatlarni taqdim etish (200–201-moddalar), keyin elektron ma’lumotlarni taqdim etish (201¹-modda) va nihoyat protsessual rasmiylashtirish tartibi (202-modda) izchil joylashtirilgan.

198-moddaga muvofiq, fuqarolar, shuningdek korxona, muassasa va tashkilotlarning rahbarlari hamda boshqa mansabdor shaxslari o‘z fikrlariga ko‘ra ish uchun ahamiyatga molik bo‘lgan narsalarni surishtiruvchi, tergovchi yoki sudga taqdim qilishga haqlidir⁹. 200-modda hujjatlar bo‘yicha shunga o‘xshash qoidani belgilab, nafaqat tayyor hujjatlarni, balki shaxsdagi mavjud ma’lumotlar asosida maxsus tuzilgan hujjatlarni ham qamrab oladi. 201¹-modda esa 2024-yil 21-noyabrdagi O‘RQ-1003-sonli Qonun bilan kiritilgan bo‘lib, elektron ma’lumotlarni o‘z tashabbusi bilan taqdim etish huquqini mustahkamlagan¹⁰.

199 va 201-moddalar taqdim etishning ikkinchi ko‘rinishini – vakolatli organ talabiga ko‘ra taqdim etishni tartibga soladi. Diqqatga molik jihat shundaki, 200-moddada hujjat taqdim etish “haq” sifatida belgilangan bo‘lsa, 201-moddada u “shart”, ya’ni majburiyat sifatida mustahkamlangan; bundan tashqari 201-moddada talab subyektlari doirasiga prokuror ham kiritilgan.

⁴ Белкин А.Р. Теория доказывания в уголовном судопроизводстве. – М.: Норма, 2005. – С. 218.

⁵ Пономаренков В.А. Реализация доказательственного потенциала участников уголовного судопроизводства. – Самара, 2008. – С. 87.

⁶ Быков В.М. Собираение и проверка доказательств на предварительном следствии. – М.: Юрлитинформ, 2010. – С. 94.

⁷ Мухитдинов Ф.М. Жиноят процесси: моҳият, мазмун, шакл. – Тошкент, 2002. – Б. 56.

⁸ Иномжонов Ш.Х. Жиноят процессида далиллар тақдим қилиш ва фойдаланиш муаммолари. – Т.: Адолат, 2003. – Б. 63.

⁹ O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi. Amaldagi tahrir. – lex.uz. <https://lex.uz/docs/-111460#-254509>

¹⁰ O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 21-noyabrdagi O‘RQ-1003-sonli Qonuni. – lex.uz. <https://lex.uz/docs/-7228758?ONDATE=21.11.2024%2000#-7229213>

O'tkazilgan tahlil asosida mazkur tushunchalar o'zaro umumiylik va xususiylik, ya'ni jins va tur munosabatida turishini hamda quyidagi to'rt mezon bo'yicha farqlanishini asoslaymiz.

Birinchi mezon – mazmun ko'lami (hajmi). “Dalillarni taqdim etish” tushunchasi o'z ichiga nafaqat narsa va hujjatlarni, balki shaxslarning yozma tushuntirishlarini, ma'lumotnomalarni, mutaxassis va ekspert xulosalarini hamda boshqa axborot manbalarini ham qamrab oladi. Narsa, hujjat va elektron ma'lumotlarni taqdim etish esa faqat moddiylashgan, ya'ni muayyan moddiy yoki raqamli tashuvchida mavjud bo'lgan obyektlar bilan cheklanadi. Demak, birinchi tushuncha ikkinchisiga nisbatan kengroq hajmga ega.

Ikkinchi mezon – protsessual maqom. Taqdim etilgan narsa yoki hujjat avtomatik tarzda dalil maqomini olmaydi. JPKning 90-moddasiga ko'ra, ma'lumotlar va narsalardan ular tergov harakati bayonnomasi yoki sud majlisi bayonnomasida qayd etilganidan keyingina dalil sifatida foydalanish mumkin¹¹. Demak, narsa va hujjatni taqdim etish – dalil hosil bo'lishining dastlabki sharti bo'lsa-da, dalilning o'zi emas.

Uchinchi mezon – subyektlar doirasi. Dalillarni taqdim etish huquqi, asosan, protsess ishtirokchilariga (gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, jabrlanuvchi, himoyachi, fuqaroviy da'vogar va boshqalar) tegishli bo'lsa, narsa va hujjatlarni taqdim etishda subyektlar doirasi kengroq: u ishga aloqasi bo'lmagan har qanday fuqaroni, korxona, muassasa va tashkilotlarning rahbarlari hamda mansabdor shaxslarini ham qamrab oladi.

To'rtinchi mezon – tashabbus manbai. Narsa va hujjatlarni taqdim etish ikki yo'l bilan amalga oshirilishi mumkin: egasining o'z tashabbusi bilan yoki vakolatli organ talabiga ko'ra. Ikkala holatda ham harakatning ixtiyoriylik tabiati saqlanadi – aynan shu belgi taqdim etishni majburlov xarakteridagi olib qo'yish va tintuvdan tubdan farqlaydi.

Tadqiqot davomida taqdim etish bir martalik harakat emas, balki o'zaro bog'liq protsessual harakatlardan iborat yaxlit jarayon ekanligi aniqlandi. Uni to'rt bosqichli jarayon sifatida tavsiflash mumkin.

Birinchi bosqich – taqdim etish tashabbusining yuzaga kelishi. Bunda tashabbus obyekt egasidan yoki vakolatli organdan chiqishi mumkin, biroq ikkala holatda ham topshirish shaxsning erkin xohish-irodasiga asoslanishi shart.

Ikkinchi bosqich – obyektни qabul qilish va ko'zdan kechirish. Vakolatli shaxs taqdim etilgan obyektни JPKning 136–140-moddalarida belgilangan qoidalarga muvofiq ko'zdan kechirib, uning individual belgilarini va ish bilan bog'liqlik darajasini aniqlaydi.

Uchinchi bosqich – protsessual rasmiylashtirish. JPKning 202-moddasiga muvofiq, taqdim etish to'g'risida bayonnoma tuziladi¹². Aynan shu bosqich hal qiluvchi ahamiyatga ega, chunki u obyektни daliliy maqomga olib chiqadi.

To'rtinchi bosqich – obyektни ishga qo'shib qo'yish to'g'risida qaror qabul qilish. Qonun rad etish holatida qaror (sud uchun ajrim) chiqarishni talab qiladi, bu esa taqdim etgan shaxsga shikoyat qilish imkonini beradi.

Institutning tarixiy shakllanishi va tushunchaviy taraqqiyoti. Tushunchalar nisbatini to'liq anglash uchun ularning tarixiy shakllanishiga qisqacha to'xtalish maqsadga muvofiq. Taqdim

¹¹ O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi. Amaldagi tahrir. – lex.uz. <https://lex.uz/docs/-111460#-253798>

¹² O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi. Amaldagi tahrir. – lex.uz. <https://lex.uz/docs/-111460#-7235014>

etish instituti jinoyat protsessual qonunchiligida dastlab mustaqil tergov harakati sifatida rasman mustahkamlanmagan bo'lsa-da, sud-tergov amaliyotida isbotlash jarayonining tarkibiy qismi sifatida qo'llanib kelingan. Dastlabki bosqichlarda dalillarni to'plash asosan vakolatli organning bevosita faoliyati bilan bog'lanib, protsess ishtirokchilarining tashabbusi ikkinchi darajali hisoblangan.

Keyingi bosqichlarda tortishuvchanlik g'oyalarining kuchayishi bilan taqdim etishning protsessual qiymati oshib bordi. S.A. Sheyfer sovet davri jinoyat protsessida dalillarni to'plash usullari tizimini tahlil qilar ekan, taqdim etishni alohida usul sifatida ajratishning zarurligini asoslagan edi¹³. Mazkur ilmiy pozitsiya keyinchalik qonunchilikda o'z aksini topdi.

Institut rivojlanishining eng so'nggi bosqichi – elektron ma'lumotlarning qamrab olinishi bo'lib, u tushunchaviy apparatga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Agar an'anaviy tavsifda taqdim etish predmeti “narsa va hujjat” bilan cheklangan bo'lsa, bugungi kunda u uchinchi – raqamli obyektlar guruhi bilan to'ldirildi. Bu esa tushunchalar nisbatini qayta ko'rib chiqishni taqozo etdi, zero elektron ma'lumot na sof “narsa”, na sof “hujjat” bo'lib, o'ziga xos oraliq huquqiy tabiatga ega.

Tushunchalarni farqlashning amaliy ahamiyati. Yuqorida bayon etilgan nazariy farqlash sof akademik xarakterga ega emas – uning aniq amaliy oqibatlari mavjud.

Birinchidan, farqlash protsessual rasmiylashtirish shaklini belgilaydi. Agar taqdim etilayotgan obyekt moddiylashgan bo'lsa, unga nisbatan 202-moddadagi maxsus bayonnoma tartibi qo'llaniladi. Agar taqdim etilayotgan narsa yozma tushuntirish yoki og'zaki axborot bo'lsa, boshqa protsessual shakl talab etiladi.

Ikkinchidan, farqlash subyektlar doirasini aniqlashga xizmat qiladi. Narsa va hujjatlarni taqdim etishda ishga aloqasi bo'lmagan uchinchi shaxslar ham qatnashishi mumkinligi qonunda aniq belgilangan, holbuki dalillarni taqdim etishning boshqa shakllari ko'pincha protsessual maqomga ega shaxslar bilan bog'liq.

Uchinchidan, farqlash dalilning maqbulligini baholashda ahamiyat kasb etadi. Har bir obyekt turi uchun qonunda o'ziga xos talablar belgilangan bo'lib, ularning buzilishi turlicha protsessual oqibatlarga olib keladi. Xususan, elektron ma'lumotlar uchun mutaxassis ishtiroki va yaxlitlikni saqlash kabi maxsus talablar nazarda tutilgan.

To'rtinchidan, aniq farqlash institutni boshqa tergov harakatlaridan – olib qo'yish va tintuvdan – chegaralashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ushbu chegara esa bevosita shaxsning protsessual kafolatlari hajmini belgilaydi: taqdim etishda yengil rejim, majburlov harakatlarida esa qat'iyroq kafolatlar qo'llaniladi.

Xulosa. O'tkazilgan tahlil asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin. Birinchidan, “dalillarni taqdim etish” va “narsa, hujjat hamda elektron ma'lumotlarni taqdim etish” tushunchalari jins va tur munosabatida bo'lib, ularni aynanlashtirish maqsadga muvofiq emas. Ikkinchidan, ushbu tushunchalar mazmun ko'lami, protsessual maqom, subyektlar doirasi va tashabbus manbai bo'yicha farqlanadi. Uchinchidan, narsa, hujjat va elektron ma'lumotlarni taqdim etish dalillarni taqdim etishning mustaqil protsessual tartibga ega bo'lgan tarkibiy ko'rinishi sifatida e'tirof etilishi lozim. To'rtinchidan, taqdim etish o'zining tugallangan to'rt

¹³ Шейфер С.А. Собрание доказательств в советском уголовном процессе. – М.: Наука, 1981. – С. 92.

bosqichli protsessual jarayonga ega bo'lib, har bir bosqich keyingisi uchun zaruriy huquqiy shart yaratadi.

Mazkur nazariy xulosalar taqdim etish institutining huquqiy tabiatini to'g'ri tushunish, uni boshqa tergov harakatlaridan farqlash hamda qonunchilikni takomillashtirish yo'llarini aniqlashda asos bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi. Amaldagi tahrir. – lex.uz <https://lex.uz/docs/-111460#-253798>
2. O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 21-noyabrdagi O'RQ-1003-sonli Qonuni. – lex.uz. <https://lex.uz/docs/-7228758?ONDATE=21.11.2024%2000#-7229213>
3. Шейфер С.А. Собрание доказательств в советском уголовном процессе. – М.: Наука, 1981.
4. Шейфер С.А. Доказательства и доказывание в уголовном судопроизводстве. – М.: Норма, 2009.
5. Белкин А.Р. Теория доказывания в уголовном судопроизводстве. – М.: Норма, 2005.
6. Пономаренков В.А. Реализация доказательственного потенциала участников уголовного судопроизводства. – Самара, 2008.
7. Быков В.М. Собрание и проверка доказательств на предварительном следствии. – М.: Юрлитинформ, 2010.
8. Мухитдинов Ф.М. Жиноят процесси: моҳият, мазмун, шакл.– Тошкент, 2002.
9. Иномжонов Ш.Х. Жиноят процессида далиллар тақдим қилиш ва фойдаланиш муаммолари. – Т.: Адолат, 2003.
10. Лупинская П.А. Доказательства в уголовном процессе: традиции и современность. – М., 2016.
11. Орлов Ю.К. Проблемы теории доказательств в уголовном процессе. – М.: Юристъ, 2009.